



**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI TABRIK VA TILAKLARINING GENDER
XUSUSIYATLARI: QIYOSIY PRAGMATIK TAHLIL**

<https://doi.org/10.70728/qdpi.v08.i01.044>

Ernazarova Nargiza Xidirovna,

katta o‘qituvchi O‘zDJTU

e-mail: nargizaernazarova1111@gamil.com

Tel: +998935547208

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillaridagi tabrik va tilaklarda namoyon bo‘ladigan genderga oid farqlarni M.Y. Strijneva va M.L. Nikolayevna kabi tadqiqotchilarning nazariy qarashlari hamda G. Xolmsning gender kommunikatsiyasi modeli asosida sotsiolingvistik va pragmatik tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqot gender tushunchasini jamiyat tomonidan shakllantiriladigan ijtimoiy konstrukt sifatida ko‘rib chiqadi, u nutqiy xatti-harakatlarni ijtimoiy kontekstga moslashtirish me‘yorlarini belgilaydi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ayollar nutqida emotsional iliqlik, samimiy duoviylik, diniy-madaniy qadriyatlar va g‘amxo‘rlik unsurlari ustunlik qiladi, bu G. Holmesning "birdamlik nutq uslubi" nazariyasiga mos keladi. Erkaklar nutqida esa mantiqiylik, qisqalik, kinoya, hazil va ijtimoiy statusni ifodalovchi leksik birliklar yetakchilik qiladi, bu esa mavqe, kuch va ijtimoiy ierarxiyani mustahkamlovchi modeldir. Ingliz tilida gender tafovutlar leksik va pragmatik darajada aniq namoyon bo‘lsa, o‘zbek tilida ular madaniy, diniy va ijtimoiy qadriyatlar bilan shartlangan holda namoyon bo‘lishi aniqlandi. Xulosa qilib aytganda, har ikkala til tizimida ham tabrik va tilak aktlari genderga xos kommunikativ strategiyalar orqali ifodalanadi.

Kalit so‘zlar: Gender, sotsiolingvistika, pragmatika, tabrik/tilak, nutqiy harakat, emotsionallik, erkaklar nutqi, ayollar nutqi.

Kirish “Gender” atamasi 1968-yil Kaliforniyalik olim R. Stoller tomonidan fanga kiritilgan.² Sotsiolingvistika va gendershunoslilikda gender va tilni o‘rganish ko‘pincha Robin Lakoffning 1975 yilda nashr etilgan “Language and Woman’s Place” kitobidan, shuningdek, Lakoffning undan oldingi tadqiqotlaridan boshlangan deb aytiladi. Til va jinsni o‘rganish 1970-yillardan boshlab ancha rivojlandi.

² G.To‘lanboyeva, G.Roziqova. Tilning gender xususiyatlari tadqiqi Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. International scientific-online conference. B.61-64 <https://doi.org/10.5281/zenodo.8191336>

Har bir jamiyatda gender tushunchasi erta bolalikdan suhbat, hazil, ota-ona tarbiyasi, muassasalar, ommaviy axborot vositalari va bilim berishning boshqa usullari orqali o‘rganiladi. Demak, gender jamiyatning barcha shaxslari uchun tabiiy va hatto ilmiy tushuncha bo‘lib ko‘rinadi. Ko‘pgina olimlar nafaqat bu sog‘lom fikrning orqasida haqiqatni topishga, balki bu tushuncha nima uchun odatiy hol sifatida qabul qilinishini tushunishga ham harakat qilmoqdalar. Bunday tadqiqot gender haqidagi ba’zi bir asosli taxminlarni shubha ostiga qo‘yishni va bu kontseptsiyaga boshqa nuqtai nazardan yondashishni talab qiladi.³

Demak, gender jamiyat tomonidan erta yoshdan shakllantiriladigan ijtimoiy konstrukt bo‘lib, ko‘pincha tabiiy haqiqat sifatida qabul qilinadi. Biroq zamonaviy tadqiqotlar uni tanqidiy qayta talqin qilishni talab qiladi.

K.I. Megela “gender”ni jamiyat tomonidan biologik jins asosida shakllantiriladigan ijtimoiy va madaniy me’yorlar majmuasi sifatida talqin etadi. Bu tushuncha so‘zlovchilarning sotsiolingvistik kompetentsiyasining bir qismi bo‘lib, nutqiy xatti-harakatlarni ijtimoiy kontekstga mos ravishda loyihalash me’yorlari va uslublarini belgilaydi.⁴

Metodlar

Tadqiqotning metodologik asosini sotsiolingvistika va gender tadqiqotlaridagi yetakchi nazariyalar tashkil etadi, xususan: Gender kommunikatsiyasi modeli (G. Holmes): Ayollar nutqi asosan birdamlik va hamjihatlikni kuchaytirishga, erkaklar nutqi esa mavqe va kuchni ta’minlashga yo‘naltirilgan degan tushunchaga tayaniladi .

Nutqiy farqlarning gender modellari (M.Y. Strijneva, M.L. Nikolayevna): M.Y. Strijneva erkak nutqini mantiqiylik, konkretlik, qisqalik va baholovchi leksika ustun bo‘lgan obyektiv uslub deb, ayol nutqini esa emotsional bo‘yoq, diniy-madaniy qadriyatlar, samimiy e’tibor ustun bo‘lgan hissiy-individual uslub deb tasniflaydi. M.L. Nikolayevna esa erkak muloqotini statusli, baholovchi va direktiv deb ta’riflaydi.

Natijalar

Gender tadqiqotlari erkak va ayollik stereotiplari, jinsga xos nutqiy xatti-harakatlar, tildagi jins kategoriyasi hamda gender assimetriyasi kabi masalalarni qamrab oladi.⁵ Ushbu qarashlar davomi sifatida Pushkarevaning fikri asosida gender kontseptsiyasining asosiy to‘rtta komponentga asoslanishini ko‘rib chiqamiz:

- 1) madaniy ramzlar;
- 2) ushbu ramzlarni mumkin bo‘lgan talqin qilish yo‘nalishlarini belgilovchi va diniy, ilmiy, huquqiy va siyosiy ta’limotlarda ifodalangan normativ bayonotlar;
- 3) ijtimoiy institutlar va tashkilotlar;

³ https://en.wikipedia.org/wiki/Language_and_gender

⁴ Qarang: М. Ю. Стрижнёва Особенности женского стиля письма научно-популярного туристического журнала «Вокруг света» выпуск 3 (20) том 2 2018 (Современный дискурс-анализ)

⁵ А.Г.Кирова Развитие гендерных исследований в лингвистике Вестник ТГПУ.2009. Выпуск 8 (86) стр.138-140

4) shaxsning o‘zini identifikatsiya qilish.⁶

Demak, gender bu jamiyat tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy konstruktsiya bo‘lib, u erkak va ayollarga xos deb qaraladigan me‘yorlar, rollar va stereotiplar tizimini ifodalaydi.

I.Goffmanning fikricha, jins ko‘plab marosimlarning tarkibiy qismidir. Jamiyatning butun marosim hayoti “erkak – ayol” dixotomiyasi bilan o‘ralgan. Ismlar, murojaat shakllari, ovozlar, soch turmagi, kiyim-kechak va o‘zini ko‘rsatish bular gender identifikatsiyasidir. Ritual harakatlarning bajarilishi jamiyat tomonidan tartibga solinadi; muloqotning barcha ishtirokchilariga ma‘lum bo‘lgan marosim me‘yorlari odamlarning ijtimoiy tuzumni ramziylashtiruvchi va qayta tiklaydigan umidlari doirasini va ularga muvofiq o‘zini tutishga tayyorligini tashkil qiladi degan g‘oyani ilgari suradi.⁷ I. Goffmanning “erkak–ayol” dixotomiyasiga ko‘ra jamiyatdagi gender identifikatsiyasining tashqi ko‘rinishlarini belgilovchi belgilar orqali insonlar jamiyatning ijtimoiy tartibini ramziy tarzda qayta ishlab va mustahkamlab boradilar.

N.L.Pushkarevaning xulosasiga ko‘ra, gender atamasi “ayol” va “erkak” ning ijtimoiy, madaniy va psixologik jihatlarini tavsiflash uchun, ya‘ni “jamiyat tomonidan ayollar va erkaklar sifatida belgilab qo‘yilgan belgilar, me‘yorlar, stereotiplar, rollarni tashkil etuvchi hamma narsani aniqlashda ishlatilgan.”⁸

80-yillarda genderni yanada muvozanatli tushunish nafaqat ayollar tarixini, ayollar psixologiyasini va boshqalarni tushuntirish muammosi, balki ayollik va erkaklik, ular bilan bog‘liq ijtimoiy va madaniy me‘yorlarni har tomonlama o‘rganish muammosi sifatida paydo bo‘ldi. 90-yillarda faqat erkaklikni o‘rganuvchi harakat paydo bo‘ldi va erkaklik har qanday jamiyatda turlicha namoyon bo‘ladi, degan tushuncha paydo bo‘ldi.⁹

Tannenning fikricha, muloqat vaqtida ayollar o‘z muammolari bilan bo‘lishishadi, yordam so‘rashga uyalishmaydi, hamdardlik, yordam va qo‘llab quvvatlashni qadrlashadi. Erkaklar esa, muammolar haqida gapirishdan ko‘ra ularni hal qilishni afzal ko‘rishadi, ular o‘quvchi va tinglovchi roldan ko‘ra ekspert/lektor/o‘qituvchi rolda o‘zlarini qulay his qilishadi. Ayollar rasmiy bo‘lmagan holatlarda, erkaklar esa omma va boshqa holatlarda ko‘p gapirishadi. Bundan tashqari Tannen shuni ham ta‘kidlab o‘tadiki, ko‘pchilik ayollar uchun muloqat bu do‘stlik munosabatlarni o‘rnatish, umumiy qiziqishlarni va hamjihatlikni ifodalash yo‘lidir. Ularning o‘zaro kommunikativ harakatlari ierarxik bo‘lmaydi. Ko‘pchilik erkaklar uchun esa muloqat bu raqobat, bilimiga, o‘ziga, o‘z kuchiga ishonish demakdir.¹⁰

⁶ Qarang: Кирилина А.В. Гендер и гендерная лингвистика на рубеже третьего тысячелетия НАУЧНЫЙ ОБЗОР Московская международная академия, Москва, Россия Вопросы психолингвистики 3 (49) 2021 DOI 10.30982/2077-5911-2021-49-3-109-147. Стр.110

⁷ Qarang: Кирилина А.В. Гендер и гендерная лингвистика на рубеже третьего тысячелетия НАУЧНЫЙ ОБЗОР Московская международная академия, Москва, Россия Вопросы психолингвистики 3 (49) 2021 DOI 10.30982/2077-5911-2021-49-3-109-147. Стр.110

⁸ Qarang: А.В. Кирилина Гендер: лингвистические аспекты (монография) Москва, 1999. стр.5

⁹ А.В. Кирилина Гендер: лингвистические аспекты (монография) Москва, 1999. стр.5

¹⁰ Qarang: Е.С.Гриценко Становление гендерной лингвистики в контексте общего развития науки о языке Учебное пособие для студентов и аспирантов Нижний Новгород Издательство ГОУ ВПО НГЛУ, 2007, стр.58.

Bu fikrlarni davomi sifatida G. Xolms erkak va ayol nutqi o‘rtasidagi nutqni quyidagicha izohlab beradi:

- erkak va ayollarning tildan foydalanishining turli xil modellari bor;
- ayollar muloqat jarayonida erkaklarga nisbatan ta‘sir qilishga ko‘proq e‘tibor qaratishadi;
- ayollar erkaklarga qaraganda birdamlikni ifodalovchi lingvistik shakllardan ko‘proq foydalanishadi;
- ayollar hamjihatlikni qo‘llab quvvatlash va uni o‘rnatish uchun muloqat qilishadi; erkaklar esa muloqat jarayonida (ayniqsa rasmiy vaziyatlarda) kuch va mavqeni ta‘minlash va o‘rnatishga harakat qilishadi;
- bir xil ijtimoiy vaziyatda ayollar xuddi shunday ijtimoiy guruhdagi erkaklarga nisbatan ko‘proq standart formalardan foydalanishadi.¹¹

Ushbu erkak va ayol o‘rtasidagi nutqni ikki til misolida ko‘rib chiqamiz.

Erkak va ayollarning tildan foydalanishining turli xil modellari. Bu tabriklarda status, kuch, hazil, obro‘, do‘stlik va individuallik kabi erkaklik konseptlari ustun. Holmes ta’kidlaganidek, bu turdagi nutq dominant, baholovchi va statusga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Masalan, *“Hope your birthday is just like you... totally freaking awesome.”* Tabrigi erkak nutqi bo‘lib, Maskulin ifoda mavjud, “awesome” erkaklik kuchi va ishonchni bildiruvchi semadir. Yana bir misol *“You’re not older – you’re just more distinguished.”* Bunda yosh emas, balki tajriba (status) e’tirof etilganini aynan erkak tomondan aytilgan nutq ekanligini ifodalaydi. Tabrikning mazmunida mavqe markaziy qismdaligi e’tiborga molikdir. *“Today is your day, live it like you are the king of the world.”* Bu tabrikda “King” metaforasi erkaklik va hokimiyatni ifodalaydi. *“Best wishes! May you have maximum fun today, and minimum hangover tomorrow!”* Tabrikning hazilga asoslanganligi va yuqoridagi ma’no semalari erkaklararo nutq ekanligini yaqqol ko‘rsatib turibdi. *“Hey Birthday Boy! ... you’re way too cool for ordinary human sentiments.”* Bunday ohang ironik bo‘lib, erkak nutqidagi o‘zini ustun ko‘rsatish strategiyasini ko‘rsata oladi. Shuningdek bu kabi erkaklikka xos nutq shakllarini o‘zbek tili misolida ham ko‘rib o‘tsak. *“Tug‘ilgan kuningiz muborak bo‘lsin! Ishlaringiz barakali, umr yo‘lingiz fayzli bo‘lsin.”* Tabrigida semantik ma’no baraka, martaba, hurmat, sadoqatga asoslangan. *“Alloh umrga baraka bersin, yoshi bilan izzat-obro‘ ham ziyoda bo‘lsin.”* – bunda duoviy, rasmiy, qadriyatga asoslanganlik ustunlik qilmoqda. *“Sizga sog‘lik, sadoqat va shon-shuhrat tilayman!”* *“Har ishda omad sizga yor bo‘lsin, martabangiz doimo yuksak bo‘lsin”*. Bu patriarxallik – hurmat, mas’uliyat, ibrat ustunlik qilgan nutq hisoblanib, yuqoridagi hislatlar birinchi planga chiqariladi. Bundan tashqari, ijtimoiy barqarorlik, oilaviy qadriyatni e’tirof etishi ham e’tivorlidir. Erkak adresantlik qilgan tabriklarda ingliz tilida individga asoslangan maskulin nutq, o‘zbek tilida esa kollektiv va duoviy erkaklik modeli ustun. Holmes aytganidek, bu “power-oriented” muloqot bo‘lib,

¹¹ Qarang: Е.С.Гриценко Становление гендерной лингвистики в контексте общего развития науки о языке Учебное пособие для студентов и аспирантов Нижний Новгород Издательство ГОУ ВПО НГЛУ, 2007.- стр.59.

erkaklarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini mustahkamlaydi. Bu tabriklarda erkaklar nutqining asosiy belgisi dominantlik, hazil, kuch, mavqe, muloqotda ijtimoiy ierarxiyani mustahkamlovchi modeldir. Shuningdek, ayol adresantlik qilgan tabriklarni o‘ziga xosligi shundaki, bunday nutqda emotsionallik, go‘zallik, mehr, samimiyat, iliqlik, birdamlik markazda turadi. Holmes nazariyasi bo‘yicha, birdamlikni kuchaytiruvchi kommunikativ strategiya hisoblanib, boshqacha qilib aytganda, “solidarity speech style” dir. Masalan, *“Wishing you a birthday that’s just as wonderful as you are!”* “Wonderful” so‘zi orqali ayol nutqining iliq, hissiy qadrlash kabi hissiyotli ma’noni aniqlashimiz mumkin. Shu bilan birga bu tabrik tipik ayol nutqiga xos ekanini ham anglatadi. *“Sending some love to the most charming man in my life.”* Bunda ayol so‘zlovchining erkakka nisbatan hissiy murojaati yaqqol ko‘rinadi. Yana shu kabi bir tabrikni ko‘rib chiqamiz. *“You’re a wonderful person, and you’re looking gorgeous, too.”* “Gorgeous” leksemasi orqali biz bu tabrikda tashqi ko‘rinishga alohida urg‘u berilganini ko‘rishimiz mumkin, shunday qilib, bu ayol nutqidagi tabriklar uchun odatiy holdir. *“Happy Birthday! Let’s take advantage of all the free stuff...”* Bu samimiy, o‘yinchan ohang bo‘lib, ayollararo norasmiy muloqot xususiyati hamdir. Ingliz zabon ayollarning nutqi doirasida tabrik tilaklarni o‘zbekcha shakllariga ham e’tibor qaratamiz. *“Tug‘ilgan kuningiz muborak bo‘lsin, azizam! Baxtingiz, sog‘lig‘ingiz va go‘zalligingiz doimiy bo‘lsin.”* *“Har bir kuningiz tabassum, mehr va shodlikka to‘lsin.”* *“Onajon, umrlaringiz uzoq, sihat-salomatlik sizga yor bo‘lsin.”* *“Yoshingiz ziyoda, hayotingiz fayzli bo‘lsin.”* kabi misollarda duoviylik, samimiy, mehr, poklik, oilaviy qadriyatning ahamiyati (“baxt”, “fayz”, “mehr”), shu bilan birga, ayol nutqida onalik, mehr, madaniy odob, ruhiy, ijtimoiy birdamlikni ta’minlovchi leksemalarning qo‘llanilish ustunligini aniqladik.

Demak, G. Holmesning gender modeliga tayanib, yuqoridagi tabriklarda ingliz tilida ayol tabriklari shaxsiy iliqlik va ijobiy his-tuyg‘ularni ifodalasa, o‘zbek tilida ular duo, mehr, va oilaviy qadriyatlar bilan bog‘langan. Bu birdamlik va iliqlikni kuchaytiruvchi nutq shaklidir. Ingliz va o‘zbek tillaridagi tabrik va tilaklar G. Holmesning gender kommunikatsiyasi modeli nuqtai nazaridan erkaklar nutqi har ikki tilda mavqe, kuch, ijtimoiy rolni ifodalovchi vositalardan foydalanadi; ingliz tilida bu individual yutuq, o‘zbek tilida esa hurmat va duoviylik bilan ifodalanadi. Ayollar nutqi ingliz tilida iliqlik, samimiyat, hissiy yaqinlik, o‘zbek tilida esa mehr, sadoqat, oilaviy qadriyat markazida bo‘ladi. Har ikki tilde ham do‘stlik va birdamlikni ifodalovchi elementlar mavjud, lekin o‘zbek tilida ular ko‘proq duo formulasiga, ingliz tilida esa oddiy emotsional ifodaga tayanadi. Shunga ko‘ra, ingliz tili tabriklarida gender tafovutlar leksik va pragmatik darajada aniq namoyon bo‘lsa, o‘zbek tili tabriklarida ular madaniy, diniy va ijtimoiy qadriyatlar bilan shartlangan.

Xulosa

Tahlillardan xulosa qiladigan bo‘lsak, ingliz va o‘zbek tillarida tabrik va tilaklarning ifodalanishida genderga oid sezilarli farqlar mavjud. Ayol nutqida emotsional iliqlik, samimiy duoviylik, diniy-madaniy qadriyatlar va g‘amxo‘rlik unsurlari ustun bo‘lsa, erkak nutqida mantiqiylik, qisqalik, kinoya va ijtimoiy statusni ifodalovchi leksik birliklar

yetakchilik qiladi. Ayollar tabrigi ko‘proq birdamlik va ruhiy qo‘llab-quvvatlashni, erkaklarniki esa ijtimoiy norma, hazil va baholovchi ohang orqali quvonchni bildiradi. Shu bois, M.Y. Strizhneva va M.L. Nikolayevna nazariyalari asosida aytish mumkinki, har ikkala til tizimida ham tabrik va tilak aktlari genderga xos kommunikativ strategiyalar orqali namoyon bo‘ladi: ayollar nutqida hissiy-individual, erkaklar nutqida esa mantiqiy-obyektiv va ijtimoiy-baholovchi uslub ustuvorlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G.To‘lanboyeva, G.Roziqova. Tilning gender xususiyatlari tadqiqi Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. International scientific-online conference. B.61-64 <https://doi.org/10.5281/zenodo.8191336>

2. М. Ю. Стрижнёва Особенности женского стиля письма научно-популярного туристического журнала «Вокруг света» выпуск 3 (20) том 2 2018 (Современный дискурс-анализ)

3. А.Г.Кирова Развитие гендерных исследований в лингвистике Вестник ТГПУ.2009. Выпуск 8 (86)

4. Кирилина А.В. Гендер и гендерная лингвистика на рубеже третьего тысячелетия НАУЧНЫЙ ОБЗОР Московская международная академия, Москва, Россия Вопросы психолингвистики 3 (49) 2021 DOI 10.30982/2077-5911-2021-49-3-109-147. Стр.110

5. Е.С.Гриценко Становление гендерной лингвистики в контексте общего развития науки о языке Учебное пособие для студентов и аспирантов Нижний Новгород Издательство ГОУ ВПО НГЛУ, 2007.

6. <https://www.shutterfly.com/ideas/happy-birthday-quotes/>

7. <https://qwert.uz/2020/04/29/tugilgan-kun-uchun-tabriklar-matni/>